

JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATI

Xakimova Zubayda Muxtaraliyevna

Oriental universiteti Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari)

yo'nalishi 5-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Vatanimiz faxri qahramoni bo'lgan Jaloliddin Manguberding 33-yil ichida qilgan fidokorona yurishlari va unga bag'ishlangan asarlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Jaloliddin Manguberdi tarjima holi, mo'g'ullarga qarshi kurashi, Parvon janggi, Sind daryosi bo'yidagi jang, Shimoliy Hindistonga qilgan yurishlari va vafoti, xotirasi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются самоотверженные походы Джалолитдина Мангуберди, героя, гордость нашей Родины, в течение его 33 лет и произведения, посвящённые ему.*

Ключевые слова: *биография Джалолитдина Мангуберди, борьба с монголами, Парванская битва, битва на берегах реки Синд, походы в Северную Индию и гибель, мемуары.*

Abstract: *This article discusses the selfless campaigns of Jaloliddin Manguberdi, the hero of the pride of our Motherland, during his 33 years and the works dedicated to him.*

Keywords: *Jaloliddin Manguberdi biography, fight against the Mongols, Parwan battle, battle on the banks of the Sindh River, campaigns to Northern India and death, memoirs.*

Jaloliddin Manguberdi (1198–1231) – buyuk xorazmshohlar davlatining so'nggi vakili, xorazmshoh Alouddin Muhammadning to'ng'ich farzandi, mustaqillik uchun fidokorona kurashi, ajoyib sarkardalik faoliyati, shaxsiy jasorati, Vatanga muhabbati bilan tarixdan munosib o'rin olgan davlat arbobi. Uning mo'g'illar istilosiga qarshi kurashi o'sha davr tarixchilari – Ibn al-Asirning “Al-komil fi-t-tarix” (1230 yili yozilgan), Shihobuddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangberdi” va “Nafatul masdur” (1234 yili yozilgan), Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoy” (1260 yili yozilgan), Rashididdin Fazlullohning “Jome'-ut tavorix” (1302–1311) asarlarida yoritilgan. Shihobuddin Muhammad an-Nasaviy “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangberdi” nomli asarida Jaloliddin Manguberдини quyidagicha tasvirlaydi: “U bug'doyrang, o'rta bo'yli, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi. Shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi.

Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o'tish kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi, ammo u yashagan davrdagi g'alayonlar, alg'ov-dalg'ovlar fe'l-atvorini o'zgartirdi. U qo'l ostidagi odamlarning og'ir hayotini yengilashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi". Jaloliddin Manguberdi Alouddin Muhammad va uning turkman kanizagi Oychechakdan (1198 yili) tug'ilgan. U 1215 yilda G'azna, Bomiya, o'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar, Shimoliy Hindiston yerlariga hokim va taxt vorisi etib tayinlangan. Momosi Turkon xotun va qipchoq amirlarining noroziligi sababli ukasi Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etildi. Alouddin Muhammad farzandlarini 1220 yili to'plab, o'limi oldidan Jaloliddin Manguberdi Xorazm hukmdori deb e'lon qildi. Urganch mudofaasi uchun yetib kelgan Jaloliddin Manguberdi bu yerda Tukon xotunning akasi Xumor Teginning sulton deb e'lon qilinganligini va unga suiqasd uyushtirilayotganini sezib, uch yuzta suvoriysi bilan Urganchni tark etib, Xuroson tomonga qarab yo'lga chiqadi. Nishopur yaqinida o'zidan ikki barobar ko'proq bo'lgan dushman qo'shinini yengib, shaharga kiradi. Bu yerda qo'shin to'plab Kandahorni qamal qilib turgan mo'g'illar ustiga yurish qilib, ularni tor-mor etadi. 1221 yilda G'aznaga yetib kelgan Jaloliddin Manguberdiga oldin qo'shilgan qaynotasi, Hirot voliysi Aminalmulkdan tashqari halaj qabilasi boshlig'i Sayfiddin Ig'roq, Balx voliysi A'zam Malik, afg'onlar sardori Muzaffar Malik, qorluqlar boshlig'i Hasan Qorluq o'z askarlari bilan qo'shildilar. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan ko'psonli mo'g'illar ustidan birinchi katta g'alabani qo'lga kiritdi. Bu xabarni eshitgan Chingizxon Shiki Xutuhu boshliq 45 000 qo'shinini Jaloliddin Manguberdiga qarshi jo'natadi. G'azna yaqinidagi Parvon dashtida bo'lgan bu jangda Jaloliddin Manguberdi g'alabani qo'lga kiritgan. Lekin o'lja ustidagi janjal sabab Aminalmulkdan boshqa sarkardalar Jaloliddin Manguberdini tark etishadi. Bu vaziyatdan xabar topgan Chingizxon ning shaxsan o'zi Jaloliddin Manguberdiga qarshi o'tlanadi. 1221 yil 25 noyabrda Sind daryosi bo'yidagi mash'um jangda jasorat va shijoat bilan kurashgan Jaloliddin Manguberdi mag'lub bo'lsa ham dushmani – Chingizxon e'tiboriga sazovor bo'ldi. 1224 yilgacha shimoliy Hindiston hududida davlatni mustahkamlash uchun olib borgan kurashlari mo'g'illarning Hindistonga yo'lini berkitib turdi. Lekin mahalliy hokimlarning o'rinsiz qarshiliklari Jaloliddin Manguberdining Iroqqa yuz tutishiga sabab bo'ldi. Bu yerda Kirmon, Isfahon hokimlari va ukasi G'iyosiddin Pirshoh amirlari Jaloliddin Manguberdi hokimiyatini tan oldilar. 1225–1230 yillarda Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjon, Gruziya, Iroq hududlaridagi mahalliy hokimlarni bo'ysundirib, bu hududga bostirib kirgan mo'g'il qo'shinlarini bir necha bor (1227–1228–

30) tor-mor etdi. Ko‘niya sultoni Alouddin Kayqubod muholif kuchlarni Jaloliddin Manguberdi qarshi birlashtirdi. Bu holat Jaloliddin Manguberdi ning ikkita dushman orasida qolishiga olib keldi. Ahillik va birlikning yo‘qligi, aldov va xoinliklar chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik bayrog‘ini yuksakka ko‘targan Jaloliddin Manguberding tinkasini quritdi va 1231 yilda u Kurdiston tog‘larida fojiali ravishda halok bo‘ldi. 1999 yil noyabrda yurtimizda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi va Xorazmda xalqimizning bu qahramon farzandiga ulug‘vor haykal o‘rnatildi. O‘zbekistonda Jaloliddin Manguberdi milliy qahramonlar qatoriga kiradi. Akademik Vasiliy Bartoldning fikricha, xorazmshohlar millati jihatidan o‘zbeklar hisoblangan[5][6]. 2022-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatida yodgorlikni tantanali ravishda ochib berdi[7]. 2000-yil 30-avgustda „Jaloliddin Manguberdi“ ordeni ta‘sis etilgan. Orden nizomiga ko‘ra, u mamlakat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini himoya qilishda harbiy iste‘dod, mardlik va qahramonlik namunasini ko‘rsatgan, shuningdek, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga katta hissa qo‘shgan qo‘mondonlik tarkibidagi harbiy xizmatchilarni taqdirlash uchun beriladi. 2003-yil 22-avgustda Xorazm viloyati ushbu orden bilan mukofotlangan. Jaloliddin ulug‘lash sovet davridan boshlangan bo‘lib, u Vasiliy Yanning 1939-yilda nashr etilgan „Chingizxon“ romani va „Mardlik qanotlarida“ qissasining asosiy qahramonlaridan biri hisoblanadi.

Jaloliddin Manguberdi sharafiga O‘zbek Milliy akademik teatri sahnasida „Jaloliddin Manguberdi“ spektakli sahnalashtirilgan[9].

Grigol Abashidzening „Uzun tun“ romanining qahramoniga aylangan.

Isay Kalashnikovning „Shafqatsiz asr“ romanining personaji bo‘lgan.

Jaloliddin Manguberdi Xitoyning „Chingizxon“ serialida ikkinchi darajali qahramon sifatida ham tasvirlangan.

2015-yil aprel oyida Turkmaniston prezidenti ishtirokidagi tadbirda Turkmaniston xalq rassomi Saragt Babayev „Jaloliddin Mangburni“ deb nomlangan eng yaxshi haykal uchun mukofotga sazovor bo‘lgan[10].

2017-yilda O. Nazarbekov ishtirokida Jaloliddin Mangburniga bag‘ishlangan „Mendirman“ nomli musiqiy klip suratga olingan[11].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi.
2. Turkmanistonning tarixiy-madaniy merosi: ensiklopedik lug'at.
3. Prezident otkril noviy pamyatnik Djalaladdinu Manguberdi v Urgenche.
4. Turk shoiri va yozuvchisi Nomiq Kamolning „Jaloliddin Xorazmshoh“asari .